

ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

8 / 2019

Ushbu sonda:

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA IRRATSIONAL
USTANOVKALARGA MOYILLIKNING
UMUMIY XUSUSIYATLARI

2 ➤

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR
PATOLOGIYASI VA REabilitatsiyasi

9 ➤

O'QUVCHILARNING HUQUQIY BILIMLARNI
O'ZLASHTIRISH DARAJASINI EMPIRIK
O'RGANISH TAHLILI

25 ➤

BOSHLANG'ICH SINF AQLI ZAIF O'QUVCHILARIDA
YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHNING
SAMARALI YO'LLARI

37 ➤



MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynudinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJAPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib
Sayyora Alimxodjayeva
Adabiy muharrir
Sayyora Alimxodjayeva
Kompyuterda terish va dizayn
Mirtohir Xoliqov

Mualifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolerini to'g'rilash va qisqartish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborigan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqrib qillinmaydi.

Mualifning familyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda «MAKTAB VA HAYOT» dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

- 2 P.S.ERGASHEV, M.A.XOLMATOV, Yuqori sinf o'quvchilarida irratsional ustanovkalarga moyillikning umumiyl xususiyatlari
- 4 Z.SHAROPPOVA, O.U.AVLAYEV. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning emotsiyonal xususiyatlari
- 7 D.Z.JO'RAQULOVA. O'smir shaxsi rivojlanishining psixologik xususiyatlari
- 9 D.A.IBRAGIMOVA, S.M.UMAROVA, G.X.HATAMQULOVA. Inklyuziv ta'lrim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuv masalalari
- 9 N.Q.AXMEDOVA. Maktabda ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish (TALIS)
- 10 Z.R.BAKIYEVA, H.M.FOZILJONOV. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda o'yinli texnologiyalarni qo'llash
- 13 D.M.XAKIMOVA. O'quvchilarda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish vositalari
- 14 H.M.MAMATOVA. Umumta'lim maktab o'quvchilarini o'qitishda kreativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari
- 16 A.U.XAITOV. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'smirlarda shakllangan noto'kislik kompleksining sport faoliyatidagi korreksiysi
- 18 Z.SH.MAMARAIMOVA. Boshlang'ich sinf darslarida fanlararo bog'liqliknинг ahamiyati
- 19 G.O.NAJMIDDINOVA. Makabgacha yoshdagji bolalarda grammatik ko'nikmalarni shakllantirish
- 21 A.A.BOLTAYEV. Voleybolchilarda ayrim jismoniy va funksional ko'rsatkichlarning turli yuklamalar ta'sirida o'zgarish dinamikasi
- 23 D.X.SHODMONQULOVA. O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlanirishda o'yinli texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari
- 25 B.JO'RAYEV, M.KAMILOVA O'quvchilarning huquqiy bilimlarni o'zlashtirish darajasini empirik o'rganish tahlili
- 27 K.G.MALIKOV, A.A.NABIYEV. Qiyshiq burchakli "dimetrik proeksiyalar" dan birining dastlabki tahlili
- 28 A.T.USMONOVA. Rahbar imijini shakllantirish – umumta'lim maktabi imijini rivojlaniruvchi omil sifatida
- 30 S.SAYDALIYEV, F.S.RASULOVA, O'.XOLMURODOV. Ko'rinishlar mavzusiga oid mashg'ulotlarni tashkil etishning o'ziga xos uslubii
- 32 YU.G'.MAHMUDOV, A. TURSUNOV. Fizikadan ekologik mazmunda masala yechishda o'quvchi o'quv-ijodiy faoliyati bosqichlari va omillar
- 34 G.A.ERGASHEVA. Ta'lim tizimida matematika ta'liming ahamiyati
- 36 S.M.ABDUXAMIDOV, M.I.ASROQULOVA. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda didaktik tamoyillarga yondashish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari
- 37 B.X.XUSNIDDINOVA. Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarida yozuv malakalarini shakllantirishning samarali yo'llari
- 39 SH.R.SAMAROVA. Ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni o'qishga qiziqтирish
- 42 C.M.ЭРМАТОВА. Способы повышения уровня противопожарных знаний у молодёжи



bilarmonlik o'yinlariga yaqin. Odatda psixologik va ijtimoiy xarakterdagi dramatik o'yinlar jamoadaagi muhitni yaxshilash, shaxslararo munosabatlarning ijobiy bo'lishiga erishish, muloqotga kirisha olish, jamoada yagona birlincki qaror topotirish, o'zgalarining ruhiy holatini to'g'ri baholash, og'ir vaziyatlarga duch kelgan sub'ektlarga yordam ko'rsatish hamda sarnarali, unumli faoliyat ko'rsatish uchun zarur sharoitni yaratishga xizmat qildi. Barcha o'yinlarda bo'lgani kabi pedagogik o'yinlar jarayonida ham ishtirokchi-o'quvchilar faol holatda bo'ladi, sheriklari bilan o'zaro munosabatga kirishadi, shuningdek, o'z qarashlarini sheriklarini bilan taqqoslash, jamoa bilan zarur munosabatni o'matish orqali o'zini o'zi o'rganadi. Pedagogik jarayonda o'yinlardan foydalananishda ayrim jihatlarga e'tibor qaratish lozim.

Pedagogik maqsadlarda qo'llaniladigan o'yinlar texnologiyasi quyidagi jadvalda aks etgan

O'yin jarayoniga hyech kim halaqt qilmasligi kerak. Bordi-yu, zaruriyat

bo'lsagina faqat boshlovchi ishtirokchilarining harakatlarini tuzatishi, ularni to'g'ri yo'naltirishi mumkin. Har qanday jarayon singari o'yin yakunida uning tashkil etililishi yuzasidan muhokama o'tkazilishi zarur. Muhokama chog'ida o'yin ishtirokchilar, tomoshabin (jamoaning o'yina ishtirok etmagan a'zolari), ekspertlar o'yinning tashkil etilishi va o'tkazilishi yuzasidan o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildiradi.

Muhokama jarayoni quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- taqrizchilarining chiqishlari;
- fikrlar almashinuv;
- ishtirokchilarining o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishlari;
- o'yinda yakun yasash.

O'yin texnologiyalarining metodik ta'minoti loyiha, o'yinning mezonlari, ish qog'ozlari (metodik ko'rsatmalar), o'yin mohiyatini yorituvchi huijatlar (ssenariy) kabilardan iborat. O'yinlar chog'ida turli vositalar (kompyuter, imitatsion trenajyorlar, sport anjomlari (koptok, arkon, halqa), xomashyolar (plastilin, yumshoq o'yinchoqlarni yasash uchun materiallar, rangli qalamlar, ish qog'ozlari, o'yinchoqlar, legolar, konstruksiyalar, dekoratsiyalar va boshqalar) kerak bo'ladi.

O'quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashda quyidagi xulosalarni keltirib o'tamiz.

| | | | |
|-----|-----------------------|---|--|
| I | Tayyorgarlik bosqichi | 1.1. O'yinni loyihalash | Senariyni ishlab chiqish; yo'riqnomma mazmunini ishlab chiqish; moddiy ta'minotni tayyoralash; guruhni |
| | | 1.2. O'yinni boshlash | Rollar taqsimoti; muammo va maqsadlarni vujudga keltirish; shartlar, qoidalar, reglament o'matish; maslahat berish |
| II | O'yin bosqichi | 2.1. Guruhda topshiriq ustida ishlash | Manbalar bilan ishlash; trening; "Aqliy hujum"; o'yin texnikasi bilash ishlash |
| | | 2.2. Guruhlarning chiqishi natijalarini himoya qilish; munozara qoidasi; ekspertlar | Guruhlarning chiqishi natijalarini himoya qilish; munozara qoidasi; ekspertlar |
| III | Tahlil bosqichi | 2.2. Guruhlarning chiqishi natijalarini himoya qilish; munozara qoidasi; ekspertlar | O'yinni yakunlash; tahlil; ishni baholash va o'ziga baho berish; xulosa va umumlashtirish; tavsiyalar |

– Har bir o'yin texnologiyalari dars jarayonida qo'llanilganda o'quvchi shaxsining erkin fikrleshiga zamin yaratadi;

– O'yinli texnologiyalarni qo'llaganda o'quvchilarining ijodkorlik qirralari to'liq namoyon bo'ladi;

– O'zaro tanqidiy fikrlesh va tezkorlikda fikrlesh qobiliyatlarini rivojlanadi;

– O'quvchilar mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgartlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlesh qobiliyatlarini to'liq rivojlanishiga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya / Tuzuvchi: M.N.Aminov. Mas'ul muharir: A.Majidov. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2010 y.


2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti. 2015 y.

3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli TD-PU. 2013 y.


4. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2-х т. Т.1. – М.: Народное образование. 2005 г.

O'QUVCHILARNING HUQUQIY BILIMLARNI O'ZLASHTIRISH DARAJASINI EMPIRIK O'RGANISH TAHLILI

B.Jo'rayev, Qarshi davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). QarDU magistri Kamilova M.



Ma'lumki, qonun ustuvorligi va uning mohiyatini anglash hamda unga itoatkorona munosabatda bo'lish o'ta muhim jarayondir. Buni his qilmok uchun esa har bir shaxsning huquqiy savodxonligi yetarli darajada bo'lmog'i lozim. Demak, masala o'z-o'zidan yana o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga borib taqaladi. Buning uchun



esa asosiy e'tiborni tarbiya maskani bo'lmish ta'lim muassasalarida, qolaversa undagi muhitni sog'lomlashtirib turuvchi o'qituvchilar ja'moasiga qaratmok zarurdir. Avvalambor, u yerda o'sib ulg'ayotgan, ta'lim olayotgan yoshlarining huquqiy ongini shakllantirishni bir tizimga yo'naltirish orqali keng omra orasida yoshlar mavqeini oshirish

mumkin bo'ldi.

O'quvchilarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishda ularning huquqiy bilimlarini o'zlashtirishga nisbatan psixologik tayyorlik holatini psixodiagnostika qilish, ularning tafakkur xususiyatlarini aniqlab olish zarur bo'ldi. Bu holat esa o'quvchi bilish faoliyatini xarakterlovchi operativ fikrlash, voqe-a-hodisalarini tahlil qilish va ulami solisthira olish, vaziyatga mos qarorlar qabul qilish, vaziyatlarni tahlil etuvchanlik, muammoni hal etishga tayyorlik, narsa va hodisalarning o'xshashlik hamda farqli tomonlarini ajrata bilish va aqliy taraqqiyot darajasini aniqlashga zarurat tug'diradi. O'quvchilarning tushunchalarini o'zlashtirishi uchun aqliy taraqqiyot mezonlari sifatida mantiqiy tafakkur, verbal tafakkur, analitik, sintetik tafakkur va intellektning labilligi kabi muhim jihatlarini olish mumkin.

Aqliy tajriba-sinov natijalarini tahlil etishda ularning matematik-statistik jihatdan ob'ektivligi va ishonchlilikini tekshirish maqsadida tekshiriluvchilarning ikki holatdagi aniqlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov natijalarini orasidagi farqlar ishonchlilikini topish bilan bir qatorda, an'anaviy ta'lif jarayonida ta'lif olayotgan tengdoshlarining natijalarini bilan ham qiyosiy o'rnatildi.

Tajriba-sinovi metodikalari sharhida o'quvchilarning aqliy taraqqiyotini diagnostika qilish uchun aqliy taraqqiyotni baholash metodikalarining mazmuni, ularni o'rganish xususiyatlari asosida tahlilni keltirish maqsadga muvofiq.

O'quvchi aqliy taraqqiyotining pedagogik-psixologik o'ziga xosligini tadqiq qilish orqali tushunchalarini o'zlashtirish imkoniyatlarini chandalash mumkin bo'ldi. Buning uchun o'quvchi aqliy taraqqiyotini aniqlashning mezonli sifatida tafakkur elementlari ajratib olindi:

1. Mantiqiy tafakkur. Tafakkurning ushbu turi inson aqliy faoliyatni xususiyatini ifodalovchi turlaridan biri bo'lib, "tushunchalar" mantiqiy tuzilmalarni xarakterlaydi. Mantiqiy tafakkur til vositalari bazasida faoliyat ko'rsatadi va paydo bo'lishi jihatidan tafakkurning tarixiy va antogenetik taraqqiyotining nisbatan kechki bosqichlarida paydo bo'ldi. Tafakkur strukturasida mantiqiylik umumlashtirishning turli xil turlari asosida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi.

Shunday qilib, tafakkur mantiqiyligi biz o'tkazmoqchi bo'lgan tadtiqotning predmeti hisoblangan aqliy taraqqiyotni aniqlash, o'chash mezonlaridan biri sifatida tanlab olindi.

2. O'quvchilar tafakkurining yana bir sifati – muhimni nomimidan ajratish qobiliyatidir. Tafakkurning barcha operatsiyalari ushbu qobiliyatni belgilovchilaridir: analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash va h.k.z. Insonga berilgan bir qancha predmetlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda ularning birini (qavsdan tashqaridagisini) qolgan beshtasidan (qavsning ichidagisidan) unga ma'lum munosabatda aloqador bo'lgan ikkitasini tanlash jarayonida avvalambor analiz jarayoni kuzatiladi. O'rganilayotgan so'zlarga xos bo'lgan mazmuniy sifatlar ajratib olinib, so'ngra sifatlar bir-biri bilan qiyoslanadi. Metodika shartiga ko'ra sifatlarning ayrimlari sintez qilinadi va umumlashtiriladi. Tafakkur operatsiyalaring amalga oshirilishining keyingi bosqichida xulosa chiqariladi. Bunda qobiliyatning rivojlanishi bilan aqliy taraqqiyot o'rtasida bevosita uzviy aloqa mavjud bo'lib, shu aloqadan kelib chiqqan holda mazkur mezonni aqliy qobiliyatning mezonli sifatida qabul qilish mumkin.

3. Intellektual labillik ham inson aqliy taraqqiyotining darajasini belgilab beruvchi psixologik mezonlar sirasiga kiradi. Insonlar biror bilim, malaka yoki ko'nikmani har xil tezlikda o'zlashtirib oladilar. Bu ularda intellektual labillikning har xil darajada rivojlanganligidan dalolat beradi [1].

Ma'lumki, an'anaviy ta'lif usulida yangi faoliyat turlarini, bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirib olish qobiliyatni sust rivojlangan bo'ldi. Chunki "kimdir gapiradi – kimdir tinglaydi" qabilidagi dars berish usulida o'quvchilar tayyor axborotlarni qabul qiladi va o'zlashtirish tezligi sust bo'ldi. Pedagogik texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi-gan ta'lif tizimida esa o'quvchilar o'z aql-zakovatiga tayangan holda ma'lum bilimlarga ega bo'lishadi. Bunda tabiiyki, intellektual labillik sifati keskin o'sadi, rivojlanadi. Natijada umuman o'quvchilar aqliy taraqqiyotining ham jadallashganligi haqida ma'lum xulosalar chiqarish imkoniyati mavjud bo'ldi.

Mazkur tajriba o'quvchilarning tushunchalarini o'zlashtirishda tajriba-sinov uchun aniqlovchi bosqich hisoblanadi.

Aniqlovchi bosqich tajriba-sinovda oltita metodika bo'yicha o'quvchilarning aqliy taraqqiyot darajasi aniqlandi. Ularning umumiyligi natijalar va guruhning xususiy holatini aks ettiruvchi natijalar quyida empirik materiallar asosida tahlil etiladi.

Empirik ma'lumotlar keltirilgan 1-jadvalda har bir metodika aqliy taraqqiyotning baholash mezonli sifatida baholanadi.

1. Tekshiriluvchilarning "muhim belgilarni ajratish" metodikasining asosida tafakkur xususiyati, narsa va hodisalarning farq qiluvchi muhim jihatlarini ajrata olish qobiliyatni hamda tafakkurning konkret yoki abstrakt tafakkurlash uslubini o'zlashtirganligini baholashga yordam beradi.

2. "Mantiqiy tafakkur" mezonida esa ko'rgazmali-harakatli tafakkur, ko'rgazmali-obrazli tafakkur, ijodiy tafakkur, amaliy tafakkur, nazariy tafakkurlarga xos fikrlash uslubiga egalini aniqlashga imkon beradi.

3. "Intellektning labilligi"da o'quvchining bilim, malaka yoki ko'nikmani har xil tezlikda o'zlashtirish va tafakkurdagi rigidlikni baholashi nazarga olinadi.

4. "Murakkab analogiyalar"da esa o'quvchining murakkab mantiqiy munosabatlari va abstrakt bog'lanishlarni ajrata olish tushunchasini aniqlashga qaratilgan.

1-jadval

O'quvchilarning aqliy qobiliyatini aniqlovchi tajriba ko'rsatkichlari (n=60)

| Nº | Mezonlar | X | σ | t |
|----|---------------------------|------|------|---------|
| 1. | Muhim belgilarni ajratish | 5,73 | 1,35 | -2,95** |
| 2. | Mantiqiy tafakkur | 5,61 | 1,28 | 2,07 |
| 3. | Intellektning labilligi | 7,82 | 3,62 | 1,64 |
| 4. | Murakkab analogiyalar | 4,54 | 1,72 | 2,77* |

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

O'quvchilarning aqliy qobiliyatlar ko'rsatkichlarining metodikalarining xususiyatiga ko'ra o'rta darajani namoyon qildi. O'quvchilar "muhim belgilarni ajratish" (5,73 ball), "mantiqiy tafakkur" (5,61 ball), "intellektning labilligi" (7,82 ball) va "murakkab analogiya" (4,54 ball) bo'yicha o'ziga xos qiymatga egaligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichlar o'quvchilarning tushunchalarini o'zlashtirishga tayyor ekanliklari, mulohazalash, voqe-a-hodisalar va predmetlarning muhim belgilarni farqlashga moyillik borligini, ammo ularning xususiyatlariga qo'shimcha xususiyatlar aks etgan hollarda o'zlarini ko'rsatishga qobiliyatli ekanliklari aniqlandi. Ammo o'quvchilarning murakkab analogiyalar ustida ishlashda fikrlari tarqoqlashib qolishi ilmiy tushunchalarini o'zlashtirishda qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuni hisobga olgan holda o'quvchilarning aqliy qobiliyatini baholash mezonlari o'rtasidagi korrelyatsion (2-jadval) munosabatlari o'rganildi.

2-jadval

O'quvchilarining aqliy taraqqiyot mezonlari o'rtasidagi korrelatsion koefitsientlari

| | Muhim belgilarni ajratish | Mantiqiy tafakkur | Intellektning labilligi | Murakkab analogiyalar |
|---------------------------|---------------------------|-------------------|-------------------------|-----------------------|
| Muhim belgilarni ajratish | 1 | 0,337** | -0,333** | 0,215 |
| Mantiqiy tafakkur | | 1 | 0,275* | 0,122 |
| Intellektning labilligi | | | 1 | -0,147 |



| | | | | |
|-----------------------|--|--|--|---|
| Murakkab analogiyalar | | | | 1 |
|-----------------------|--|--|--|---|

* $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$;

O'quvchilarning aqliy qobiliyati mezonlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarga ko'ra "muhim belgilarni ajratish" bilan "mantiqiy tafakkur" o'rtasida ($r=0,337$, $p \leq 0,01$) ijobiy, "intellektning labilligi" bilan teskari bog'lanishga ($r=-0,333$, $p \leq 0,01$) ega bo'ldi. Bu holat o'quvchilarning huquqshunoslik fani bo'yicha tushunchalarning xususiyatlari va farqli jihatlarini ajratishga qobiliyatlari ekanligini xarakterlasa-da, ammo notanish tushunchalar bilan ishlashda tafakkurda rigidlik kuzatilishidan dalolat beradi.

"Mantiqiy tafakkur" esa intellektning labilligi" bilan ijobiy korrelyatsion munosabatga ega bo'ldi ($r=0,275$, $p \leq 0,05$). Bu ko'rsatkich o'quvchilarda mantiqiy mulohazalashning o'sishi intellektning labilligini ta'minlashga xizmat qilishi mumkinligi va u sinavchilarda shakllanish imkoniyati borligini anglatmoqda [2].

Ammo o'quvchilarning murakkab analogiyalar bilan ishlashtirishida hali nuqsonlar kuzatilmoqda. O'quvchilarning tushunchalarni o'zlashtirishida uchraydigan kamchiliklarning bir tomoni shu bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

QIYSHIQ BURCHAKLI "DIMETRIK PROEKSIYALAR" DAN BIRINING DASTLABKI TAHLILI

K.G.Malikov, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi
A.A.Nabiiev, mazkur universitet talabasi

В данной статье и изложен геометрический анализ линейческой проекции на примере античного изображения древнегреческого сагитариуса.

Ключевые слова и понятия: геометрическая проекция, изображение, аксонометрическая проекция, фронтальная проекция.

Ma'lumki, ibtidoiy davrdan uyg'onish davrigacha insonlar mimikalar, imo-ishora, so'zlar, yozma shaklda yoki turli shartli belgi va chizgilar-tasvirlar yordamida o'z fikrlarini bir-biriga yetkazganlar. Bu omillar insoniyat taraqqiyot davrining har bir bosqichida mutanosib shakllanib va rivojlanib keladi. Xususan, chizgi-tasvirlar avvaliga ikki o'lchamda keyinchalik esa, uch o'lchamda bajarilgan. Qadimda bunday tasvirlarga, biror hududdan ikkinchisiga borishda yo'ldan adashmaslikni ko'rsatuvchi ketma-ket uchraydigan mo'ljallar – katta daraxt, qoya, soylik, dashtlik, cho'lilik va suvlil kabibi mavjud ob'ektlarning shartli belgilarini ifodalovchi karvon yo'li xaritalariga katta ehtiyoj bo'lgan. Ya'ni, qadim-qadimda insoniyat o'zining amaliy faoliyatida avval biror yo'nalishni belgilash yoki oy qilish maskalarida ko'p uchraydigan jonivorlarning ikki o'lchamli tasvirlardan foydalananib, o'z fikrlarini chizgilar vositasida bir-birlariga uzatganlar.

Ming yillar osha insoniyat taraqqiyoti odamlar aql idroki va tafakkurini ham oshirishga va pirovard natijada har bir davrning tug'ma iqtidori, iste'dodli va qobiliyatilari tomonidan ob'ektlarning yaqqol tasvirlarini ham bajarishga erishganlar, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bunday tekis chizgi tasvirlar asrlar davomida takomillashib va modernizatsiyalashib ikki va uch o'lchamli tasvirlar paydo bo'lgan. Shu bois ham yaqqol tasvirlar va aksonometriyani qachon, qayerda paydo bo'lgani noma'lumdir. Ammo qadimda bu tasvirlarga yaqin bo'lgan rasmlardan barcha mamlakatlarda xalq ustalari va rasm chizish qobiliyatiga ega bo'lganlar foydalaniib kelishgan.

Qadimgi Gresiyada qiyshiq burchakli frontal aksonometrik proeksiyalarga mos bo'lgan kamon otish holatidagi 9 nafar kamonchilarining guyo yaqqol tasviri ko'rsatilgan (1-rasm). Bu rasmidan Gresiyada o'sha davrgacha tekis va yaqqol tasvirlar bajarishga oid ma'lumotlar to'g'risida quyidagilarni taxminan aniqlash mumkin:

Tadqiqotning aniqlovchi bosqichida o'quvchilarning aqliy taraqqiyotini baholovchi mezonlarni tavsiflovchi empirik ma'lumotlarning uzvy davomi sifatida o'quv faoliyat motivlari va ta'lrim jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning o'tmini aniqlashdan iborat.

O'quvchilarda huquqiy tushunchalar shakllanganligini tadqiq etish muammoning nazariy-metodologik masalalaridan kelib chiqqan holida tashkil etildi. Buning uchun o'quvchilarning tushunchalarni baholay olish imkoniyatlarining psixologik xususiyatlari, o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qadar huquqiy tushunchalardan xabardorlik holati va ta'limi jarayonida huquqiy bilimlarni shakllantirish xususiyatlariiga e'tibor qaratildi. Tadqiqot o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishning sabablari, uning samaradorligi va ahamiyatini tahlil qilishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Jo'rayev B. O'quvchilarda yuridik tushunchalar shakllanishining psixologik jihatlari. O'z R "Fan" nashriyoti. 2014. – T.: 154-Bet.
2. Jo'rayev B. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida yuridik tushunchalar shakllanishining psixologik xususiyatlari. Uslubiy qo'llanma. Qarshi "Nasaf" nashriyoti. 2015. 54-Bet.

This article presents a geometric analysis of the dimetric projection on the example of a visual image of the ancient Greek Sagittarius.

Key words and concepts: dimetric projection, image, axonometric projection, frontal projection.

1. Tekis tasvirlar-proeksiyalar yasash shakllanib va rivojlanib bo'lgan. Bunga birinchi o'rindagi (jami 9ta) kamonchining juda katta mahorat bilan bajargan tekis tasvir-chizmasi misol bo'la oladi. Unda harbiylarga xos bo'lgan mardonovar qaddi-qomat, libos va qurol anjomlar o'z aksini topgan.

2. Yaqqol tasvirlar-proeksiyalar bajarish shakllana boshlangan.

O'sha davrdagi rasm chizuvchilar tarkibiy qismlari turlicha va ko'p bo'lgan ob'ektlarning yaqqol tasvirlari-rasmini bajarish murakkabligini bilgan holda, avval ularning tekis chizmalarini bajarishgan. So'ngra tekis chizmani biroz birinchisidan kuzatuvchiga nisbatan uzoqlashtirib, faqatgina ko'rindigan kontur chiziqlarni bajarish orqali, osongina tekis chizmalarini bajarib, yaqqol tasvirlar effektiga erishish mumkinligini ham bilişgan.

3. Ularga qiyshiq burchakli frontal aksonometrik proeksiyalarga yaqin bo'lgan tasvirlar ham qisman bo'lsada ma'lum bo'lgan. Lekin "ular qisman shakllangan" degan xulosamiz ehtimoldan uzoq emas Bunga qadimda bajarilgan tasvirming geometrik parametrler nisbatanlarining AutoCAD dasturidagi tahlili sabab bo'ldi (2- rasm). Bunda: – kamonchining tekis birinchi proeksiyasi 9 marta o'ng tomong:



1- rasm